

**O'RTA MAKTABLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING
INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI OSHIRISHNING SAMARALI
USULLARI**

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi
3-bosqich talabasi **Rahimberdiyeva Mahliyo Abduqayum qizi**
e-pochta manzil: mahliyorahimberdiyeva@mail.ru*

Kalit so'zlar: Metodika, o'quvchilar, samarali ta'lim, o'qib tushunish, tahlil qilish, dunyoqarash, usul.

Ключевые слова: методика, ученики, эффективное образование, понимание прочитанного, анализ, мировоззрение, метод.

Keywords: Methodology, students, effective education, reading comprehension, analysis, worldview, method.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta maktabda boshlang'ich sinflarda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda undagi mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В этой статье рассматривается развитие навыков чтения в средних классах начальной школы, а также существующие проблемы и их решения.

Abstract: This article discusses the development of reading skills in middle primary school grades, as well as existing problems and their solutions.

Matni tushunish har bir bolaning dunyoni anglashini ta'minlaydi. Shu sababli, bu ko'nikmani bolalarning boshlang'ich maktab yillarida rivojlantirish muhimdir. Ushbu ko'nikma o'zining boshqa til o'rganish qobiliyatlariga ta'siri tufayli ham har bir o'rganilayotgan xorijiy til uchun muhim hisoblanadi. Masalan ko'p o'qiydigan va o'qigan matnini ma'nosiga tushunadigan, matnning asosiy maqsadi tez o'zlashtira oladigan o'quvchilar fikrlash doiralari keng bo'ladi va ular insho, esse, maqola, she'r, hikoya va shu kabi ijodiy ishlarni mahorat bilan yozish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

O'qish qiyinchiliklariga ega bo'lgan o'quvchilar o'z darslaridan orqada qolib ketmaslik uchun yuqori sinfga kelib, faqat 25 foiz ehtimol bilan yetib olishlari mumkin. Biroq, bolalarga bu ko'nikmani rivojlantirishga vaqtida yordam berilsa, o'qishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishlari mumkin.

Matni tushunishdagi davomiy muammoni hal qilish zarurligi Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi tomonidan ham aniqlangan. PISA – bu Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti tomonidan o'tkaziladigan va 15 yoshli

o'quvchilarni 79 mamlakat bo'ylab baholaydigan dastur hisoblanadi. Bu dastur maktab o'quvchilarining o'qish ko'nikmasini ham baholaydi va tahlil qiladi. 2023-yilda PISA natijalari milliy testlarda o'qib tushunish sohasidagi past natijalarni aks ettiradi. Bir qancha ishtirokchi mamlakatlarning maktab o'quvchilari o'z tengdoshlariga nisbatan besh-olti yil orqada ekani aniqlangan. Mutaxassislarning fikricha, sensorli texnologiyalarga tayanishlari sababli, ularning o'qish va og'zaki muloqot qobiliyatlari muammoli bo'lishi mumkin. Odatda o'quvchilar matnni eshitishlari yoki o'qishlari mumkin, biroq, o'qituvchilar o'quvchilarning so'zlarni, jummalarni va hatto qisqa hikoyalarni o'qish qobiliyatiga ega ekanliklarini, ammo o'qigan matnlaridan ma'no chiqarishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini kuzatishgan. Ya'ni butun so'zlarni o'qishadi, ammo tushunish ko'nikmalarida qiyinchiliklar bor. Matnni tahlil qilish va muhokama qilishni so'raganda, ular tushuntirishda qiynalib qolishayotganini tez-tez payqash mumkin [1].

Shu bois boshlang'ich maktab o'qituvchilari o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirish yo'llarini topish lozim.

O'quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan turli o'qish usullari mavjud, masalan: ovoz chiqarib o'qish yoki ovoz chiqarmay o'qish. Birinchi usul bu – ovoz chiqarib o'qish. Ovoz chiqarib o'qish – o'quvchi va tinglovchilar o'rtasidagi aloqa shaklidir. Bu – har qanday yozma matnni ovoz chiqarib o'qish hisoblanadi. Bu usul o'quvchidan sekin o'qishni, so'zlarni to'g'ri tartibda o'qishni, so'zlarni takrorlamaslikni va ularni to'g'ri talaffuz qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, ovoz chiqarib o'qish savodxonlik qobiliyati, ayniqsa bolalar uchun foydali ekani aniqlangan. Bu usul ularga harflarni tanish, so'zlarni to'g'ri o'rganish, talaffuzni yaxshilash, o'qish tezligini oshirish hamda yozma matn va tovush mosligini o'rganish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ikkinchi o'qish usuli esa ovoz chiqarmasdan o'qish. Bu usul shivirlab o'qish yoki ichda o'qish deb ham ataladi. Ovoz chiqarmasdan o'qishni rekreatsion yoki mustaqil ravishda o'quvchi tinch holatda amalga oshiradigan o'qish shaklidir. Bu usul o'quvchining matnni chuqur tushunishini yaxshilashga xizmat qiladi, chunki bu matnga o'quvchining bor e'tiborini qaratishi imkonini va asosiy ma'nosini tushunib yetib, tahlil qilish qobiliyatini beradi hamda uni real hayotda tasavvur qilish imkonini beradi. Ichdan o'qishni targ'ib qilish va uni sinfda qo'llash uchun SSR (Sustained Silent Reading – Muntazam Ichdan O'qish) metodikasi mavjud [2]. Bu metodda maktab o'quvchilari belgilangan vaqt ichida ixtiyoriy ravishda ovoz chiqarmasdan, shivirlab o'qishadi. Bu usul o'qishni o'rganishga va o'qishga chin dildan mehr qo'yishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari, ko'pchilik ovoz chiqarib o'qishda so'zlarni yo'qotib qo'yishlari yoki ba'zi so'zlarni o'tkazib yuborishlari sababli tushunish qiyinlashishi mumkin. Shuning uchun, aksariyat o'quvchilar hamda o'qituvchilar ichda o'qishni afzal ko'rishadi va bu usulni matnni tushunish uchun samarali deb bilishadi. Ichda o'qish

tinglash qobiliyatini oshirishda, so'zlarni yaxshiroq tushunishda ham muhim ro'l o'ynaydi.

O'qib tushunishni uchta usulda tasniflashimiz mumkin: harfiy tushunish, xulosalovchi tushunish va baholovchi tushunish. Harfiy tushunish — bu 2-sinf o'quvchilari orasida eng oson deb topilgan tushunish turidir. Bu usul tushunish ko'nikmalarining eng past darajasi hisoblanib, o'quvchilarga tafsilotlarni qayd etish va voqealarni tartiblash topshirig'ini beradi. Shu sabab ko'p o'quvchilar ushbu past darajali usulda qotib qolgan. Fikrimcha, qolgan ikki usulda esa, o'quvchilardan kutilgan natijaga erishish juda qiyin. Bundan tashqari, o'qituvchilar, o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishda harfiy tushunishni yaxshi bajarayotganlarini tajribada kuzatishgan.

Hikoyalarni o'zlari o'qishdan ko'ra, eshitishni yaxshi ko'rishadi.

O'qituvchilar, o'quvchilarning aksariyati hikoyalarni o'zlari o'qishdan ko'ra, ular tinglashni afzal ko'rishlarini ta'kidlashdi. Ular o'qituvchi hikoyani yuz ifodalari va ovoz ohangini o'zgartirish orqali qanday ifodalashini tomosha qilgan holda eshitishni yoqtirishadi. Hikoyalar o'qituvchi tomonidan ovozli o'qilganda, o'quvchilarning hikoya haqida ma'lumotni saqlab qolishlari va hikoyaga doir bir necha mashqlar berilganda, yaxshi natijalar olganliklari kuzatilgan. Ammo o'zlaridan o'qish so'ralganda, endigina o'qish ko'nikmasini rivojlantirayotgan o'quvchilar tezda chalg'ishadi va shoshilishadi, bu esa o'qigan hikoyaning tushunilish ehtimolligini kamaytirib, mustaqil o'qishlariga ta'sir etuvchi bir omil sifatida qaraladi. Sababi, ular ba'zi so'zlarni o'qishda hali ham qiyinchiliklar duch keladi, natijada o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotadilar yoki ma'noni to'liq anglashmaydi [3,4]. Bundan tashqari, ba'zi o'quvchilar matnni faqat ko'zdan kechirishadi va mashqlar berilganda faqat javoblarni qidirishadi, bu esa matnning umumiy maqsadi va mazmunini tahlil qilmaslikka olib keladi.

Shulardan kelib chiqib, bugungi avlod o'quvchilariga o'qishni va matnni tushunishni o'rgatish oson bo'lmagan vazifa hisoblanadi, chunki bunga ta'sir qiluvchi omillar ko'p. Shunga qaramay, o'quvchilar o'qishga qiziqish bildirishadi va o'qituvchilar tomonidan ovoz chiqarib o'qilgan hikoyalar hamda o'zlari mustaqil ravishda o'qigan hikoyalar orqali yangi bilimlarni o'rganishga qiziqishadi. Ammo ular matnni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va o'qigan matnlardan ma'no chiqarish ularga qiyin bo'ladi.

O'qituvchilar uchun ushbu natijalardan xulosa chiqarib, ichda o'qish usulini o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan strategiyalar bilan birga ishlatish zarur. O'qituvchilar va dastur ishlab chiquvchilar jim o'qish texnikasidan foydalanib, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usullarni yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarga turli xil matnlarni jim o'qish usuli bilan o'qishni tavsiya qilishlari kerak, bu esa o'quvchilarning e'tiborini oshiradi

va matn mazmunini tushunishda yordam beradi [5-9].

O'qishni tushunish muvaffaqiyati o'quvchilarning ehtiyoji, o'qiyotgan konteksti va o'qish afzalliklariga moslashtirilgan metod va strategiyalar bilan qo'llab-quvvatlanadi. O'qituvchilar ichda o'qish texnikasidan foydalanib, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usullarni yaratishlari mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarga turli xil matnlarni shivirlab o'qish usuli bilan o'qishni tavsiya qilishlari kerak, bu esa o'quvchilarning e'tiborini oshiradi va matn mazmunini tushunishda yordam beradi. Shu bois, har bir o'qituvchi o'zining mas'uliyatini his qilishi va o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga chin dildan yondashishi lozim. To'g'ri yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
2. Kanton Aaorgou. Fremdsprachen Lernen und lehren. Englisch an der primarschule. Leipzig-2017.S.238---239.
3. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullari-nemis-tili-misolida>
5. O'G'Li, O. A. K. (2024). O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARI O'RTASIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARNING MAZMUNI VA ULARNING AMALDA QO'LLANILISHI. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 801-805.
6. Komiljon o'g, O. A. Y. (2024). GENERAL CHARACTERISTICS OF AMERICAN ROMANTICISM. TADQIQOTLAR. UZ, 32(2), 85-91.
7. Komiljon o'g, O. A. Y. (2024). METHODS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF LISTENING SKILLS IN STUDENTS WHO DO NOT MAJOR IN A FOREIGN LANGUAGE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 554-558.
8. Egamberdiyeva, S. (2024). ALLA JANRI SPETSIFIKATSIYASI VA TASNIFLANISHI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(7), 117-126.
9. Mamajonovna, E. S. (2024). UMUMTURKIY TILLAR ALLALARIDA ALLITERATSIYA VA ASSONANS. TADQIQOTLAR, 32(2), 46-50.